

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 210 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anievovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATION TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	



MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMI

Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti,
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: mashhura.r@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarda eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Unda hududlarning mavjud resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, logistika infratuzilmasi hamda eksportni qo'llab-quvvatlovchi institutlarning roli va ahamiyati yoritib berilgan. Mintaqaviy eksport faoliyatini takomillashtirishda davlat siyosati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Bundan tashqari, xorijiy tajribada qo'llanilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar o'rganilib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Statistik ma'lumotlar, grafik va diagrammalardan foydalanilgan holda tahliliy yondashuv qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: eksport, eksport salohiyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, davlat siyosati, mintaqaviy iqtisodiyot, tashqi savdo siyosati, eksport diversifikatsiyasi, erkin iqtisodiy zonalar, bojxona va logistika, xalqaro savdo, raqobatbardoshlik, investitsiya muhiti.

Abstract. This article analyzes the organizational and economic mechanisms for enhancing the export potential of regions. It highlights the available resources of the territories, production capacities, logistics infrastructure, and the role and importance of institutions that support exports. The importance of public policy, development of small business and private entrepreneurship, attracting investments and innovative approaches are based on the improvement of regional export activities. In addition, the organizational and economic mechanisms used in the foreign experiments were studied and recommendations were developed to adapt them to local conditions. An analytical approach were used using statistics, graphs and diagrams.

Key words: export, export potential, organizational and economic mechanism, state policy, regional economy, foreign trade policy, export diversification, free economic zones, customs and logistics, international trade, competitiveness, investment climate.

Аннотация. В данной статье проанализированы организационно-экономические механизмы повышения экспортного потенциала регионов. Рассмотрены имеющиеся ресурсы территорий, производственные возможности, логистическая инфраструктура, а также роль и значение институтов, поддерживающих экспорт. Обоснована важность государственной политики, привлечения инвестиций, развития малого бизнеса и частного предпринимательства, а также инновационных подходов в совершенствовании региональной экспортной деятельности. Кроме того, на основе зарубежного опыта проанализированы эффективные организационно-экономические механизмы и разработаны предложения по их адаптации к местным условиям. В исследовании использован аналитический подход с применением статистических данных, графиков и диаграмм.

Ключевые слова: экспорт, экспортный потенциал, организационно-экономический механизм, государственная политика, региональная экономика, внешнеторговая политика, диверсификация экспорта, свободные экономические зоны, таможня и логистика, международная торговля, конкурентоспособность, инвестиционный климат.



KIRISH

Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan davrda mintaqaviy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri — eksport salohiyatini oshirish hisoblanadi. Eksport faoliyati mamlakatning tashqi savdodagi raqobatbardoshligini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, ish o'rinlarini yaratish va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, mintaqalarning eksport salohiyatini to'g'ri baholash, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda eksport faoliyatini rag'batlantirish, eksportyor korxonalarni qo'llab-quvvatlash, logistika tizimini rivojlantirish va tashqi bozorlarga kirishni osonlashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ayrim mintaqalarda eksport faoliyatining sustligi, mahsulotlar raqobatbardoshligining pastligi va tashqi bozorlar talablariga moslashuvchanlik yetishmasligi bu boradagi muammolar qatoriga kiradi.

Biroq, mintaqalarning eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va ma'muriy qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika infratuzilmasi va transport yo'nalishlaridagi kamchiliklar, marketing va bozor ma'lumotlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi, shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlar talablariga moslashtirishdagi qiyinchiliklar keltiriladi. Mazkur muammolar mintaqaviy eksportni rivojlantirishning yagona, izchil va samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish zaruratini oldindan belgilaydi.

Hozirda mintaqaning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish ahamiyati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarning eksport salohiyatini oshirish masalasi ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishga oid qonunchilik manbalarida tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlarining huquqlari va majburiyatlari, boshqaruv mexanizmlari, xalqaro savdo va investitsiya faoliyatini tartibga solish; eksportni rag'batlantirish mexanizmlari, eksport bilan bog'liq asosiy tamoyillar va me'yoriy talablar haqida to'xtatilgan. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunida tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlarining huquqlari va majburiyatlari, xalqaro savdo va investitsiya faoliyatini tartibga solish; eksport bilan bog'liq asosiy tamoyillar va me'yoriy talablari keltiriladi[1].

Shuningdek, "Eksport nazorati to'g'risida"gi Qonunda eksport nazorati, nazorat obyektlari, xavfsizlik va xalqaro shartnomalar asosida boshqaruv mexanizmlari ko'rsatiladi[2].

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda Eksport salohiyatini oshirishga investitsiyalar orqali, eksportga yo'naltirilgan korxonalar va xorijiy sarmoyalar ushbu qonun asosida rag'batlantiriladi; bojxona, soliq va huquqiy kafolatlar beriladi[3].

"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da eksport hajmini oshirish, tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish, mintaqaviy eksportni rivojlantirish chora-tadbirlari belgilangan [4].

Ko'pgina tadqiqotlarda eksport salohiyati ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik rivojlanish, transport-logistika imkoniyatlari, mehnat resurslari va innovatsion faollik kabi omillar bilan bog'lab tahlil etiladi. Mintaqalarning eksport salohiyatini oshirish va rag'batlantirish, eksport operatsiyalarini tartibga solish mexanizmlari bo'yicha ko'plab tadqiqot va ilmiy izlanishlarida tahlil qilinadi.

J. Balassa tomonidan ishlab chiqilgan komparativ ustunlik nazariyasi mintaqalarning eksportga ixtisoslashuvi samaradorligini asoslab beradi [5].

Shuningdek, M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasi eksport mahsulotlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiya, klasterlash va strategik rejalashtirish muhimligini ta'kidlaydi [6].

P. Krugmanning yangi savdo nazariyalari eksport va ixtisoslashuv muammolarini izohlashda nazariy asos bo'lib xizmat qildi. [7]

Eksport infratuzilmasi, tashqi savdoni tartibga soluvchi institutlar va davlat siyosatining ahamiyati ko'plab manbalarda alohida o'rganilgan. Jumladan, BMTning UNCTAD tashkiloti tomonidan tayyorlangan "Trade and Development Report" hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy tizimlar, eksport kredit agentliklari, bojxona tartibotlarining soddalashtirilishi va elektron savdo tizimlari keng yoritilgan [8].

JICA (Japan International Cooperation Agency) tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan "Regional Export Development in East Asia" hisobotida klaster yondashuvi, eksport markazlarini tashkil etish, elektron sertifikatlash tizimlari orqali eksportni qulaylashtirish yo'llari yoritilgan [9].



O'zbekistonda tadqiqotchilar va izlanuvchilardan L.SH.Sultanova, B.B.Adilov, A.A.Halmirzaev, N.H.Bekmuradov eksport salohiyatini raqamli/investitsion va analitik vositalar yordamida baholash, zaif va kuchli tomonlarini aniqlash jihatlarini tahlil qilgan. [10]

Sh.G'oyibnazarova erkin iqtisodiy zonalarining imkoniyatlari, infratuzilma, soliq va eksportga yo'naltirilgan infratuzilma tahlilini yoritib beradi[11]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mintaqaning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash, ularning samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslarni ishlab chiqish maqsadida bir nechta metodlardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy tahlil: eksport faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik, respublika qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, eksportga oid nizom va reglamentlar tizimli o'rganildi;
- tahliliy yondashuv: tadqiqotning nazariy asoslari eksport faoliyatining klassik va zamonaviy nazariyalariga tayanib ishlab chiqildi. Xususan, Balassa tomonidan ishlab chiqilgan aniq ustunlik nazariyasi, Porterning raqobat ustunligi konsepsiyasi va Krugman nazariyalari asosida eksport salohiyati va raqobatbardoshlik tushunchalari izohlandi;
- statistik tahlil va ma'lumotlar bazalari: tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz), Jahon banki (World Development Indicators), UNCTAD va ITC (International Trade Centre) ma'lumotlar bazalari asosida quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi;
- solishtirma tahlil: Eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha Xitoy, Janubiy Koreya, Vietnam, Turkiya, hamda Polsha davlatlarining muvaffaqiyatli tajribalari o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitiga mos jihatlari ajratib ko'rsatildi. Bu tahlilda xalqaro tashkilotlar (WTO, UNCTAD, ITC) ma'lumotlari va rasmiy hisobotlar asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmui keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Eksportni qo'llab-quvvatlash strategiyasi ko'p hollarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tashqi savdo balansini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim vosita sifatida qaraladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

Siyosiy-institutsional islohotlar. Ko'plab mamlakatlarda eksport faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida "yagona darcha" tizimi joriy etilgan. Bu tizim eksportyorlarga bojxona, litsenziya va sertifikatlashtirish jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, eksportni rivojlantirish agentliklari (Export Promotion Agency) faoliyati keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular eksport qiluvchi korxonalarga axborot, marketing va huquqiy ko'mak ko'rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, bunday agentliklar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun tashqi bozorlarga chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston eksportchilar uyushmasi – O'zbekistondagi eksportyorlar uchun tashkil etilgan uyushma bo'lib, tashqi bozorga chiqishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Eksportni rag'batlantirishda eksport kreditlari, kafolat va sug'urta tizimlari hamda soliq imtiyozlari muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yangi bozorlarni o'zlashtirishdagi xarajatlarni kamaytiradi hamda eksportyorlar uchun xavflarni minimallashtiradi. O'zbekistonda eksport operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy amaliyotlarni ko'plab tijorat banklari amalga oshiradi. "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi O'zbekistonda davlat tomonidan belgilangan eksport kreditlari va sug'urta qilish agentligi hisoblanadi. Sug'urta agentligi eksportyorlar uchun kredit sug'urtasi, eksport shartnomalarini sug'urta qilish, banklardan oladigan kreditlar uchun kafolatlar berish bilan shug'ullanadi.

Savdo-logistika infratuzilmasini rivojlantirish. Eksport salohiyatini oshirishda logistika va transport infratuzilmasining ahamiyati portlar, logistika markazlari va sovuq zanjir tizimlarini yaratish orqali eksport mahsulotlarini tezkor va sifatli yetkazib berish imkoniyati kengayishi bilan izohlanadi. Bojxona tizimida esa elektron deklaratsiya va risklarni boshqarish tizimlari joriy etilib, jarayonlar soddalashtirilmoqda. OECD tahlillariga ko'ra, logistika samaradorligini oshirish logistika samaradorligi ko'rsatkichi(Logistics Performance Index)ni yaxshilaydi va eksport xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu ko'rsatkich orqali mamlakat logistika infratuzilmasiga baho berish imkoni ortadi(1-jadval).



1-jadval. Logistika samaradorligi ko'rsatkichi, 2023-yil

	umumiy indeks	Bojxona samaradorligi ko'rsatkichi	Infratuzilma ko'rsatkichi	Xalqaro jo'natmalar ko'rsatkichi	Logistika malakasi ko'rsatkichi	Kuzatuv va izchil aniqlash	O'z vaqtida yetkazib berish ko'rsatkichi
Singapur. Jahon logistik markazi, eng samarali port infratuzilmasiga ega. Kichik hududga qaramay, xalqaro tranzit va re-eksport operatsiyalarining global markazi hisoblanadi. Bojxona 100% avtomatlashtirilgan.	4,3	4,2	4,6	4	4,4	4,4	4,3
Finlandiya. Logistika tizimi skandinaviya modeli asosida ishlaydi, chegaraviy tranzit (Rossiya, Boltiqbo'yi mamlakatlari) bo'yicha yuqori samaradorlikka ega. Bojxona va transport IT integratsiyasi mukammal.	4,2	4	4,2	4,1	4,2	4,2	4,3
Daniya. Skandinaviya mamlakatlari ichida yetakchi. Yashil logistika (green logistics) konsepsiyasi va barqaror transport siyosati bilan ajralib turadi. Elektr transport va raqamli bojxona tizimlari keng joriy etilgan.	4,1	4,1	4,1	3,6	4,1	4,3	4,1
Germaniya. Dunyodagi eng yuqori darajadagi transport infratuzilmasi, avtomobil yo'llari tarmog'i, Deutsche Post DHL kabi yirik logistika kompaniyalari mavjud. Bojxona jarayonlari raqamlashtirilgan va xalqaro jo'natmalar tezligi juda yuqori.	4,1	3,9	4,3	3,7	4,2	4,2	4,1
Niderlandiya. Rotterdam porti — Yevropaning eng yirik logistika markazi. Kuchli temir yo'l, dengiz va daryo transport tizimi mavjud. Logistika sohasida innovatsion texnologiyalar (AI, smart logistics) keng qo'llaniladi.	4,1	3,9	4,2	3,7	4,2	4,2	4
O'zbekiston. Bojxona jarayonlari raqamlashtirilmoqda, ammo jarayonlarning soddaligi va tezligi hali to'liq ta'minlanmagan. Xususi logistika kompaniyalari soni ortmoqda, ammo xalqaro darajada tajribali mutaxassislar yetishmaydi. GPS va raqamli kuzatuv tizimlari kengaymoqda.	2,6	2,6	2,4	2,6	2,6	2,4	2,8

Manba: Logistics performance index, Full report 2023. The World bank // <https://lpi.worldbank.org/international/global>

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, logistika tarmog'ida yetakchi mamlakatlar – Germaniya, Singapur, Niderlandiya, Daniya va Finlandiya kabi davlatlar logistika tizimini raqamlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishgan. Ularning umumiy LPI ko'rsatkichlari 4 dan yuqori bo'lib, logistika xizmatlari sifati, yuklarni kuzatish texnologiyalari va o'z vaqtida yetkazib berish samaradorligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston logistika tarmog'i muntazam rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi va so'nggi yillarda transport-logistika infratuzilmasining kengaytirilishi, "Yagona darcha" tizimi va "E-Tracking" loyihalarining joriy etilishi mamlakatning xalqaro logistika reytingidagi o'rnini bosqichma-bosqich yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Mahsulot sifati va standartlarni oshirish. Eksport salohiyatining yana bir muhim tarkibiy qismi — bu xalqaro sifat standartlariga moslashishdir. Ko'plab davlatlarda sertifikatlash markazlari va laboratoriyalar tarmog'i tashkil etilib, mahsulot xavfsizligi va sifatini nazorat qilish kuchaytirilgan. Bu esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Raqamli savdo tizimlari. Zamonaviy davrda eksportni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rniga tobora ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlarda B2B elektron savdo platformalari, e-export agentliklar va



elektron sertifikatlash tizimlari joriy etilgan. Bu esa kichik eksportyorlarga global bozorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish va yangi xaridorlarni topish imkonini beradi. O'zbekistonda ham raqamli platformalar joriy etilgan. Ushbu raqamli platformalarga UzTrade.uz, ExportUz.uz, madeinuzbekistan.uz, E-auksion.uz va AgroExport.uz kabilar kiradi.

Sanoat klasterlari va investitsion muhitni yaxshilash. Eksportni kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu eksportga yo'naltirilgan sanoat klasterlarini shakllantirishdir. Vyetnam, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlash siyosati ishlab chiqarish zanjirlari samaradorligini oshiradi va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham eksport bazasini kengaytiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro savdo bitimlari va tashqi savdo siyosati. Eksportni kengaytirish uchun mamlakatlar erkin savdo bitimlari va preferensial savdo rejimlari orqali yangi bozorlar ochishga erishadi. Bunday bitimlar tarif to'siqlarini kamaytiradi, eksport qiluvchi korxonalar uchun barqaror tashqi bozorlarni ta'minlaydi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yillikda erkin savdo bitimlari ishtirokchilarida eksport hajmi o'rtacha 20 foizga ortgan[12]. Shuningdek, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi xalqaro savdo tizimiga chuqurroq integratsiyalashuv, investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Eksport salohiyatini oshirish samarasi alohida chora-tadbirlar emas, balki kompleks siyosat paketi orqali yuzaga chiqadi. Siyosiy muvofiqlashtirish, moliyaviy rag'batlar, logistika infratuzilmasi, sifat nazorati va inson kapitali rivoji o'zaro bog'liq holda amalga oshirilgandagina milliy iqtisodiyot eksportga yo'naltirilgan modelga o'tadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqalarda eksport salohiyatini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eksportni rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslari, transport-logistika infratuzilmasi, inson kapitali, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi va institutsional muhit o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunday kompleks chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish: hududiy eksportni rivojlantirish kengashlari faoliyatini kuchaytirish, "Yagona eksport platformasi"ni yaratish, eksportni rivojlantirish agentligi huzurida Hududiy eksport bo'limlari tashkil etish;
- moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish: eksport kredit agentligi (ECA) faoliyatini kengaytirish, eksportni sug'urtalash va kafolatlash tizimini joriy etish, eksport faoliyatida ishtirok etuvchi kichik va o'rta korxonalar uchun past foizli kreditlar va eksport grant dasturlari yo'lga qo'yish, bank-moliya sektorida eksportga ixtisoslashgan kredit liniyalarini yaratish;
- Logistika va infratuzilmani rivojlantirish: Mintaqalarda logistika markazlari, portlarni tashkil etish orqali mahsulotlarni tezkor va sifatli tashish imkoniyati kengaytirish, transport yo'laklari (CAREC, Middle Corridor) bo'yicha O'zbekistonning integratsiyasini chuqurlashtirish mintaqaviy eksportning samaradorligini oshirish, har bir iqtisodiy mintaqada kesimida logistika xarajatlari monitoring tizimini yo'lga qo'yish;
- Institutsional va normativ-huquqiy islohotlar: eksport siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona milliy strategiya ishlab chiqish, JSTga a'zo bo'lish jarayonida xalqaro savdo normalarini milliy qonunchilikka moslashtirish eksportchilarga qulay muhit yaratish, eksportga oid ruxsatnomalar, litsenziyalar va sertifikatlar berishda elektron raqamli imzo va onlayn monitoring tizimlarini joriy etish
- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. O'zbekiston uchun erkin savdo bitimlarini kengaytirish — yangi bozorlar va preferensiyalar yaratishda muhim vosita hisoblanadi, UNCTAD, WTO, ITC, va Jahon banki bilan hamkorlikda eksport salohiyatini baholovchi qo'shma dasturlarni amalga oshirish, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirib, "lokomativ mintaqalar" (masalan, Xorazm viloyati)da eksportga yo'naltirilgan klaster modelini sinov tariqasida joriy etish, mintaqaning eksport salohiyatini oshirish — bu faqat tashqi savdo siyosati emas, balki ichki iqtisodiy boshqaruvni modernizatsiya qilish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar to'liq amalga oshirilsa, mintaqadagi eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm to'liq shakllantirishi mumkin.

Tashkiliy, moliyaviy, infratuzilmaviy va inson kapitali yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiyoti global savdo tizimiga integratsiyalashgan, barqaror va raqobatbardosh modelga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari, JSTga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish, eksport kredit agentliklari faoliyatini kuchaytirish va logistika tarmoqlarini modernizatsiya qilish O'zbekiston eksport salohiyatini yaqin yillarda 15–20 foizgacha oshirish imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi №77-II-sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni // (https://uztradeinfo.uz/media/77-II-%D1%81%D0%BE%D0%BD%2026.05.2000.pdf?utm_source)
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Eksport nazorati to'g'risida"gi Qonuni // (<https://lex.uz/uz/docs/-262949>)
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // (<https://lex.uz/uz/docs/-4664142>)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
5. Balassa B. Trade Liberalization and "Revealed" Comparative Advantage. The Manchester School of Economic and Social Studies. 1965.
6. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Free Press. 1990.
7. Krugman P., Obstfeld M. – International Economics: Theory and Policy. 9th edition, Pearson. 2012.
8. UNCTAD – Trade and Development Report 2023. Geneva: United Nations // (<https://digitallibrary.un.org/record/4041398?ln=en&v=pdf>)
9. (JICA (2020). Regional Export Development in East Asia. Tokyo.// https://www.jica.go.jp/english/publications/reports/annual/2020/c8h0vm0000fc7q2b-att/2020_06.pdf)
10. Sultanova L.SH., Adilov B. B., Halmirzaev A.A., Bekmuradov N.H. – The export potential of Uzbekistan with the use of innovative analytical tools, IJAST, 2020 // (https://www.researchgate.net/publication/342748340_The_export_potential_of_Uzbekistan_with_the_use_of_innovative_analytical_tools)
11. Goyibnazarova, S. (2023). Increase the export potential of free economic zones in Uzbekistan. Science technology&Digital Finance, 1(4), 180-186.
12. The Use of the EU's Free Trade Agreements Exporter and Importer Utilization of Preferential Tariffs // <https://unctad.org/publication/use-eus-free-trade-agreements-exporter-and-importer-utilization-preferential-tariffs?>
13. www.unctad.org
14. www.lpi.worldbank.org
15. www.uztrade.uz
16. www.exportuz.com



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>